

TA'LIM TIZIMLI BILIM OLISHNING ENG MUHIM USULI SIFATIDA

Isroilova Sanobarxon

o'qituvchi, Farg'ona politexnika instituti

Annotatsiya: *Globallashuv sharoitida ta'lism shaxsni har tomonlama voyaga etkazish, unda komillik va malakali mutaxassisiga xos sifatlarni akllantirishda muhim o'r'in tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lism oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.*

Kalit so'zlar: *ta'lism, innovatsiya, pedagogika, pedagogik mahorat.*

Ilm-fan va zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini amalga oshirish borasida hal etish lozim bo'lgan ustuvor vazifalardan biri sanaladi, O'zbekiston Respublikasining jahon bozorlariga chiqishi va u yerda o'ziga munosib o'rinni egallashi uchun ilm-fan yutuqlaridan keng ko'lamda foydalaniladigan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqara oladigan iqtisodiy tizimni shakllantirish shart. Bunday mas'uliyatlari vazifani mukammal darajada bajarish uchun esa milliy ilm-fanni hamda kadrlar tayyorlash tizimini jadal rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelinmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lism jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda.

Ta'limga ikki tomonlama aloqa (ta'lism olish va ta'lism berish), shaxsni har tomonlama rivojlantirish va boshqa xususiyatlar xosdir. Ta'lism pedagog tomonidan boshqariluvchi o'ziga xos anglash jarayonidir.

Pedagogning yo'naltiruvchi sifatidagi roli tarbiyanuvchilarning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalarni to'liq o'zlashtira olishlarida ko'rindi. Ta'lism pedagogning tarbiyanuvchilar bilan muloqoti jarayoni ham sanaladi. U tarbiyanuvchilarga o'quv materiali mazmunini tushuntirib beradi, savol va topshiriqlar beradi, ularning faoliyatini nazorat qiladi, xato va kamchiliklarini aniqlaydi, yo'l qo'yilgan xatolarni to'g'rilaydi, qanday ishlash lozimligini qayta ko'rsatadi. Har qanday ta'lism o'zida pedagog va tarbiyanuvchining faoliyati, ya'ni, pedagogning o'rgatish hamda tarbiyanuvchining o'rganishga yo'naltirilgan faoliyati, boshqacha aytganda to'g'ridan to'g'ri, bevosita va nisbiy munosabat aks etadi. Ta'lism jarayonida pedagog va tarbiyanuvchi o'rtasida o'zaro muloqot yuzaga keladi. "Muloqot" tushunchasi "ta'lism" tushunchasidan ko'ra keng ma'noga ega. Ta'lism tarbiyanuvchilarga nazariy bilimlarni berish asosida ularning bilish qobiliyatlarini o'stirish, ularda amaliy ko'nikma va malakalar, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishga yo'naltirilgan jarayondir.

Ta'lism jarayonining yaxlit tizim sifatidagi tavsifi ta'lism jarayonining "yaxlitligi" "tizimliligi" va "majmuaviyligi"ni bir xilda talqin etish mumkin emas. Biroq, ta'lism jarayonining yaxlitligi uning tizimliligi bilan uzviy bog'liq. Tizim (mustaqil tushuncha sifatida)

o'zaro bog'langan ko'plab elementlar (tarkibiy qismlar) o'rtasidagi mustahkam birlik va o'zaro yaxlitlikdir. Demak, ta'lim yaxlit tizim sifatida ko'plab o'zaro bog'liq quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: ta'lim maqsadi, o'quv axborotlari, pedagog va tarbiyalanuvchilarning ta'limiy faoliyatlari, uning shakllari, pedagogik muloqot vositalari, shuningdek, ta'lim jarayonini boshqarish usullari tushuniladi. Ta'lim jarayoni yaxlit tizim sifatida quyidagicha namoyon bo'ladi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri - pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillardidan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xusan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M.Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N.Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda respublikada yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabardor bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy harakatlar mazmunini yoritilgan.

Mohiyatiga ko'ra innovatsiyalar munosabat yoki jarayonga yangilik kiritishning dinamik tizimi sanaladi. O'z-o'zidan tizim sifatida yangilik kiritirish munosabat yoki jarayonning, birinchidan, ichki mantig'ini, ikkinchidan, kiritilayotgan yangilikning muayyan vaqt oralig'ida izchil rivojlanishi va atrof-muhitga ko'rsatadigan o'zaro ta'sirini ifodalaydi.

Barcha tarkibiy qismlarning o'zaro birligi va yaxlitligi sifatida namoyon bo'luvchi ta'lim jarayonining negizini pedagog va tarbiyalanuvchilarning ta'limiy faoliyatlari tashkil etadi. Ta'lim muassasasi (umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari)da, tashkil etiluvchi ta'lim jarayonida tarbiyalanuvchining faoliyati pedagog rahbarligi ostida kechadi.

Pedagog faoliyatining vazifasi tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy borliqni ongli va faol idrok etishga yo'naltirilgan faoliyatlarini boshqarishdan iboratdir.

Ta'lim jarayonini boshqarish quyidagi bosqichlardan iborat:

- 1) rejorashtirish;
- 2) tashkil etish;
- 3) boshqarish (rag'batlantirish);
- 4) nazorat;
- 5) natijalarini baholash va tahlil qilishdan iborat.

Pedagog faoliyatini rejorashtirish bosqichi kalendar-tematik yoki darslar rejalarini tuzish bilan yakunlanadi. Rejalar, reja-konspektlar yoki konspektlarni tuzish uchun uzoq, jiddiy ishslash kerak bo'ladi. Pedagog tarbiyalanuvchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning o'quv imkoniyatlari, moddiy baza holati, shaxsiy (kasbiy) imkoniyatlarini o'rganib chiqishi, o'quv materiali mazmunini tanlab olishi, dars olib borish shakli va metodini o'ylab chiqishi kerak bo'ladi.

Pedagog va tarbiyalanuvchilarning ta'lrim jarayonidagi faoliyatlar. Pedagog faoliyatining vazifasi va tuzilishi. Bilim olish faoliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida muayyan tuzilish, rivojlanish va faoliyat qonuniyatlariga ega. Bilim olish borliqni idrok etish, o'rganish, mashq qilish va muayyan tajriba asosida xulq-atvor hamda faoliyat ko'nikma, malakalarining mustahkamlanib, mayjud bilimlarning takomillashib, boyib borish jarayoni hisoblanadi. Bilim olishning muhim komponenti motiv, ya'ni, ta'limi xarakterdagi harakat yoki faoliyatni tashkil etishga nisbatan rag'batni his etish, ehtiyojning yuzaga kelishidir.

O'qishning keyingi komponenti o'quv harakatlari (operatsiyalari) sanalib, ular anglangan maqsadga binoan amalga oshiradi. O'quv harakatlari o'quv jarayonini tashkil etishning barcha bosqichlarida namoyon bo'ladi. Harakatlar tashqi (kuzatiladigan) va ichki (kuzatilmaydigan) ko'rinishda bo'lishi mumkin. Tashqi o'quv harakatlariga predmetli harakatlar (yozish, rasm chizish, tajribalar o'tkazish); pertseptiv harakatlar (tinglash, fikrlash, kuzatish, sezish) hamda nutqdan foydalanish kiradi. Ichki (mnemonik, yunonchadan «mnemonikon» - eslab qolish madaniyati) harakatlarga materialni eslab qolish, uni tartibga solish va tashkil etish, shuningdek, tasavvur va fikrlash harakatlari (intellektual) kiradi. Har qanday bilimni o'zlashtirishda tarbiyalanuvchilardan idrok etish madaniyatiga ega bo'lish va o'quv materialini anglab etish talab etadi.

Xulosa qilib, pedagogik jarayonda tarbiyalanuvchilar tomonidan ilmiy bilimlarning ma'nosini yetarli darajada tushunmay, faqat tovushlar birligi sifatida qabul qilinishi va yodlab olinishi xavflidir. Ta'lim tizimli bilim olishning eng muhim va ishonchli usuli sifatida tarbiyalanuvchilarni ilmiy bilimlarni ularning mohiyatini to'la tushungan holda o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Isroilov, M. (2022). The system of education and its interaction with the concept of spirituality. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 11(1), 88-93.
2. Ismoilovich, I. M. (2021). THE SOCIETY IS AT A NEW STAGE OF DEVELOPMENT PRIORITY IN EDUCATION SYSTEM REFORM FUNCTIONS.
3. Ismoilovich, I. M. (2021, July). ISSUES OF TRANSFORMATION OF EDUCATIONAL EXPERIENCE OF DEVELOPED COUNTRIES. In *Euro-Asia Conferences* (pp. 227-239).
4. Истроилов, М. И., & Истроилова, С. М. (2022). ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ЙЎЛИДА. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 82-87.
5. Yuldashev, I., Umaralievich, K. U., Goynazarov, G., & Abdurakhmonov, S. (2021). Innovative development strategy in the field of sports and the basics of its organization. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11(11), 48-53.
6. Abdurakhmonov, S. K. (2021). The Importance Of A Healthy Lifestyle In Achieving Physical Perfection. *The American Journal of Applied sciences*, 3(03), 42-47.
7. Арипов, З., & Сайдумарова, М. (2021). Zamonaviy o'qitish metodlari orqali iqtidorli o'quvchilarni tarbiylash va rivojlantirish. *Обиқетство и инновации*, 2(12/S), 86-92.

8. Арипов, З. Т. (2020). ПРОЦЕСС ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНО-РЕЧЕВОЙ ГОТОВНОСТИ СТАРШИХ ДОШКОЛЬНИКОВ К ОБУЧЕНИЮ. In *ПРОБЛЕМЫ ФИЛОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 108-112).
9. Toirjonovich, A. Z. (2022). XALQ O'YINLARINING ETNOPEDAGOGIK TASNIFI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 77-81.
10. Toirjonovich, A. Z. (2022). BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(Special Issue 2), 92-96.
11. Истроилова, С. М. (2018). Понимание" интерактивность" и" интерактивное обучение" в образовательной среде. *Вопросы науки и образования*, (3 (15)), 122-124.
12. Парпиева, М. М., Исаилова, С. М., & Мадумарова, М. Д. (2019). Преимущества применения ИКТ (информационно-коммуникационных технологий) на уроках русского языка. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 90-92.
13. Мадумарова, М. Д., & Истроилова, С. М. (2018). Некоторые аспекты обучения русскому языку в национальных группах. *Достижения науки и образования*, (16 (38)), 54-55.
14. Исаилова, С. М., & Мадумарова, М. Д. (2019). Исторические предпосылки типологических исследований. *Проблемы современной науки и образования*, (12-2 (145)), 121-123.
15. Исаилова, С. М. (2019). Повышение коммуникативных навыков студентов на уроках русского языка в нефилологических вузах. *Вестник науки и образования*, (19-2 (73)), 59-61.